"O'zmilliybank" AJ Buxoro
Amaliyot BXM boshqaruvchisi

_____D.Q.Axmedov

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki AJ
Buxoro viloyat Bosh boshqarmasi Buxror Amaliyot BXMda o'tkazilgan o'quv-seminar
BAYONI

Buxoro shahar. «29» yanvar 2026 yil

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Buxoro viloyat
Bosh boshqarmasi Ichki nazorat bo'limi boshlig' - A.Isoyev

Qatnashdilar: Buxoro Amaliyot bank xizmatlari markazi xodimlari. Jami 46 nafar xodim ishtirok etdi.

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish" bo'yicha ichki nazorat qoidalari mavzusida;

O'zmilliybank AJ bank xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda manfaatlar to'qnashinuvini oldini olishga qaratilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish – barqaror rivojlanish kaliti" mavzusida o'quv seminar va davra suxbati.

O'quv-seminarni O'zmilliybank AJ Buxoro viloyat Bosh boshqarmasi Ichki nazorat bo'limi boshlig' - A.Isoyev ochib, ichki nazorat qoidalarning ishlab chiqishning asosiy prinsipi **barcha xodimlar** ular egallab turgan lavozimlaridan qat'iy nazar, Bank mijozi bo'lgan jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning faoliyatida ichki nazoratdan o'tishi kerak bo'lgan xamda JFDL/TMK bilan bog'liq pul mablaglari va boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni aniqlashda o'z vakolatlari doirasida qatnashishlarini ta'minlashdan iborat ekanligini aytib o'tdi.

Mijozni lozim darajada tekshirish - mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirish, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni, ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o'rganishlarni o'tkazish.

Mijozni identifikatsiyalash - tijorat banki tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida mijozlar haqidagi ma'lumotlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash.

Mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash - tijorat banki tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan ta'sis hujjatlari (ustav va (yoki) ta'sis shartnomasi, nizom)

asosida mulk va boshqaruv tuzilmasini o‘rganish orqali yuridik shaxs bo‘lgan mijozning mulkdori, shu jumladan uni nazorat qiluvchi shaxsni aniqlash kabilar haqida batafsil ma’lumotlar berib o’tdilar.

Kun tartibidagi ikkinchi mavzu bo‘yicha notiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2024 yil 24 yanvarda 3492-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Banklar va nobank kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi nizom qabul qilinganligini, mazkur nizom hamda me’yoriy hujjatlarni chuqur o‘rganish kerakligini bildirdi. Shundan so‘ng 2024 yil 23 yanvarda 3492-son bilan ro‘yxatga olingan “Banklar va nobank kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi nizom ilovasida keltirilgan jinoiy faoliyatdan olingan daromatlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi bo‘yicha qoida buzarliklarning har biriga to‘xtalib, qoidabuzarlik bo‘yicha qo‘llaniladigan jarimalarning summalari va qo‘llanidigan choralarni aytib o‘tib, navbatni “O`zmilliybank” Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo’yicha bosh mutaxassisi S.Ismatovga berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo’yicha bo`yicha bosh mutaxassisi S.Ismatov so’zga chiqib, qonun ustuvorligini ta’minlanishini qat’iy nazoratga olinishi, xodimlar o‘rtasida qonun, tartib-intizom, yuksak manaviy holatini ushlab turish, jinoiy moyil insonlarni aniqlash va oldini olish, Bank kasb – odob axloq kodeksiga to‘liq rioya qilinishi, xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda hodimlarda halollik vaksinasini shakillantirish yuzasidan so‘z yurtib, 2025-yil 26-dekabr kuni muhtaram Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqimizga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab, unda jamiyat va davlat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar ochiq va tanqidiy ruhda tahlil qilinishi, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq vazifalar belgilanganligi, murojaatnomada korrupsiya illatiga qarshi kurash masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi, korrupsiya nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi, shu bois ushbu illatga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanganligi haqida so’z yuritdi.

“Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yilda ‘favqulodda holat’ e’lon qilamiz”, deya ta’kidlanganligi, bu fikr davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, mas’ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish hamda korrupsion holatlarga mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan muhim siyosiy irodaning yaqqol ifodasi ekanligi haqida fikr yuritdi.

Murojaatnomada belgilangan vazifalar korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha davlat organlari, jamoatchilik institutlari va fuqarolarning faol ishtirokini talab etilishi, qonun ustuvorligini mustahkamlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiqlikni kengaytirish orqali ushbu illatga barham berish mumkinligi alohida qayd etildi.

Shu tariqa, Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar mamlakatimizda korrupsiyadan xoli muhitni shakllantirish, adolatli jamiyat barpo etish va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi haqida aytib o’tildi.

Shuningdek "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan **YO'L XARITASI**"da

ko'rsatilgan talablar va bajarilgan ishlar to'g'risida so'z yuritdi. Bank sohasiga oid huquqbuzarliklarga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish har bir xodimdan mas'uliyat talab qiladi, zero, sodir etilgan jinoyatlarga, albatta, javobgarlik muqarrarligi, bankda ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha korsatmalar berildi.

Kun tartibi yuzasidan yig'ilish qaror qiladi:

1. O'zmilliybank AJ Buxoro viloyat Bosh boshqarmasida o'tkazilgan o'quv-seminari kun tartibidagi masalalar yuzasidan qilingan ma'ruza ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Barcha xodimlar "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari hamda "Banklar va nobank kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom talablariga to'liq amal qilishini ta'minlasin.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bo`yicha bosh mutaxassisi S.Ismatov tomonidan aytilgan ma'lumotlar va "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan YO'L XARITASI"dagi talablar ijro uchun qabul qilinsin. Xodimlari tomonidan me'yoriy hujjatlarga mos ravishda, o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishni to'g'ri va sifatli olib borilishi ta'minlansin.

Kotib: **D.Po'latova**

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bo`yicha bosh mutaxassisi: **S.Ismatov**

Таништим: Я. Казакова

Гиясов Ф.

Имонов Д.

Умурзакова Н

Шарафов Б. У.

Бердиев И.

Б. Аскаров.

A. Yodgorov

Жалилова Р

Розилова Ж.

Мухамедова Н

Асадова Н.

Ахмедова

Рахимова М.

Гулов У.

Пулатова Л.

Бафоева З.

Алиев М.

Асадова Н.

Жумаева Ж.

Р. Атаева

С. Нашнова

Шамагов И.

Загирова Г.

Жалолова З.

Невзова Ж.

М. Гайбуллаева

Алиева З.

Г. Хакимова

Вогонова М.

Тураева

Антонова М.

Бекмуророва Н.

Гуриева Н.

Хамидова

Э. Козакова

Вотчова В.

Umedov A.

Ашанова М.

З. Турсунов

Курбанов Н.

Шамагов Б.

Aminjonov A.

М. Пенжиев

И. Арзиев

NBU

NBU
OZMILLIYBANK

NBU